



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MILLIY HUQUQIY TIZIM

Abduraximov Shukurullo Dilmurodjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Samarqand viloyati bo'yicha Milliy gvardiya boshqarmasi
69933-harbiy qism Maxsus vazifalarni bajaruvchi
otryad komandiri o'rinbosari

Kapitan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7269482>

ARTICLE INFO

Received: 10th October 2022

Accepted: 20 th October 2022

Online: 31st October 2022

KEY WORDS

Huquq, tizim, fuqarolik, siyosiy, milliy.

ABSTRACT

Huquqiy tizimning taraqqiy etganlik darajasi, mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vaziyat bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholining siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatida namoyon bo'ladi. Nafaqat huquqshunoslar, balki barcha fuqarolarning huquqiy tizim to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadlariga erishish uchun nihoyatda muhimdir.

Huquq tizimi jamiyatning iqtisodiy tuzilishidan paydo bo'lib, u bilan bog'liq bo'lgan, uning mustahamlaydigan har bir davlatning ichki huquq tuzilishi bo'lib, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Huquq tizimi jamiyatning siyosiy, g'oyaviy, ma'rifiy, madaniy va boshqa ijtimoiy belgilari bilan bog'liqdir. Hamda huquq tizimi jamiyatning milliy munosabatlari, uning urf-odatlarini, barcha xalqning huquqiy ongi huquqiy madaniyatligi va davlatning huquq ijodkorlik faoliyatiga bolidir. Huquq tizimi jamiyatdagi barcha sinf, millat, tabaqa va xalqning qonun darajasida ko'tarilgan erki —irodasi bo'lib, ular o'rtasidagi turli ijtimoiy

munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalaridan iborat bo'lib, obyektiv xarakterga ega.

Huquq normalari - bu huquq tizimining eng asosiy, dastlabki tuzilishidir. Huquq normalari jamiyatning

iqtisodiy tuzilishi bilan belgilanadigan, barcha kishilar uchun majburiy bo'lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi turmush qoidalaridir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining har bir moddasi huquqiy norma bulib, bular barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun amal qilish majburiy bo'lgan qoidalardir. Huquq normalari barcha aholi uchun umumiy va majburiydir. Bular doimiy qo'llaniladigan bo'lib, unda kishilar uchun bajarish shartlari, subyektlar o'rtasidagi tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar, taraflarning huquq va burchlari huquqbuzarlik uchun jazo choralari belgilanadi.

Huquq institutlari -huquq sohasida o'zaro bog'langan jamiyatda kishilar o'rtasidagi bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir qancha huquq normalaridan iborat. Huquq institutlari huquqning asosi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham



mavjud. Masalan, «inson va fuqarolarning asosiy huquqlari erkinliklari va burchlari», «jamiyat va shaxs» ma'muriy hududiy va davlat tuzilishi» va boshqalar huquqning barcha sohasiga taaluqlidir. Jumladan, fuqarolik huquqi sohasida-mulk huquqi institutlari, jinoyat huquq sohasida-davlatga

qarshi institutlar mavjud. Bu huquq institutlari tegishli huquq sohaslarining ichki tarkibiy qismini tashkil qiladi. O'z navbatida birinchisi — mulkiy munosabatlarni, ikkinchisi — davlatga qarshi qaratilgan jinoyat qilishdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalardir.

Huquq normalari institutlarga bo'lishdan maqsad hayotda mavjud bo'lgan, juda ko'pgina huquq normalari bilan turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, ularning huquq sohaslariga birlashtirib, amaliyotda huquq normalarini to'g'ri qo'llashda foydalanishdir.

Huquq soxasi — bu hayotda o'ziga xos bir turdagi ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi maxsus huquq normalari va huquq institutlarining yig'indisi. Masalan, moliyaviy munosabatlar — moliya huquq soxasi bilan mexnat xuquq sohasi esa mehnat munosabatlari bilan tartibga soladi.

Huquq sohasi – bu huquq tizimining asosiy qismi va mustaqil bo'g'inidir. Har bir huquq sohasi umumiy va maxsus qismdan iborat bo'ladi. Bular shu sohaga tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning umumiy va maxsus tamoyillari bayon etiladi. Huquq normalari, institutlari va huquq sohaslariga birlashib yagona huquq tizimini tashkil qiladi. Huquq tizimi — huquqning mohiyati bilan ya'ni tabiiy huquq — tabiat tomonidan berilgan.

Masalan, insonning yashash huquqi, har bir shaxsning mulkdor bo'lishlik huquqi va pozitiv huquq davlat tomonidan chiqarilgan (obyektiv va subyektiv) huquq bilan belgilanadi.

Huquq tizimi O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish vazifalariga, jamiyatning siyosiy tizimini mustahkamlab, demokratiyani amalga oshiradi va huquqiy davlat qurish uchun xizmat qiladi.

Demak, huquq tizimi — jamiyatning iqtisodi, siyosiy va ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liq, obyektiv xarakterga ega bo'lgan bir turdagi ijtimoiy munosabatlarning tartibga soluvchi huquq normalari, huquq, institutlari va sohaslarini tartib bilan to'g'ri joylashtirilishidir.

Huquqiy tartibga solish quyidagi uchta holat bilan belgilanadi:

- a) subyektiv huquq va majburiyatlarni —ya'ni yuridik majburiyatlarni belgilash tartibi;
- b) subyektlar harakati darajasini belgilash;
- v) subyektiv huquq va majburiyatlarni ta'minlash yo'llari bilan.

Huquq sohalari :

Moddiy huquq

Protsessual huquq

– konstitutsiyaviy huquq;

– fuqarolik protsessual

– fuqarolik huquqi;

huquqi;

– mehnat huquqi;

– xo'jalik protsessual

– oila huquqi;

huquqi;

– moliya huquqi;

– ma'muriy protsessual

– ijtimoiy ta'minot huquqi;

huquqi;

– yer huquqi;

– jinoyat protsessual

– suv huquqi;



huquqi.

- ekologiya huquqi;
- agrar huquq;
- tadbirkorlik huquqi;
- bojxona huquqi;
- ma'muriy huquq;
- jinoyat huquqi;
- jinoyat ijroiya huquqi va boshq.

Konstitutsiyaviy huquq — bu huquq sohasi O'zRsida davlat hokimiyatini amalga oshirish shaklini, fuqarolarning holatini, iison huquqi va erkinliklarini kafolatlovchi huquqiy normalarni, ma'muriy hududiy va davlat tuzilish shaklini, Oliy Majlis, Prezident va Vazirlar Mahkamasi faoliyatini, saylov tizimi, prokuratura, moliya va kredit, mudofa va xavfsizlikka oid huquqiy normalar yig'indisidir. Bu huquqning manbai mustaqil O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi, turli qonunlar va boshqa hujjatlardir.

Ma'muriy huquq — davlat boshqaruvi, uning organlarining tashkil topish tartibini, davlat xizmatini o'tash shartlarini, davlatni boshqarishda fuqarolarning huquq va burchlarini

o'rgatadi. Bu huquqning manbai O'zRsi ning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi Kodeksi, Prezident farmonlari, qaror, farmoyishlari va boshqa normativ huquqiy hujjatdir.

Moliya huquqi — O'zbekistonda davlat pul muomalasini va moliyaviy faoliyatini belgilash, kredit berish, sug'urta, zayomlarlar tarqatish va ularga yutuq berish, banklarga rahbarlik qilishga oid huquqiy normalar yig'indisidir. Moliya huquqining normalari O'zRsining Konstitutsiyasida budjet to'g'risidagi qonunda, banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunda va boshqa normativ huquqiy xujjatlarda mustahkamlangan.

Fuqarolik huquqi - aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari bilan fuqarolar o'rtasidagi mulkiy (ma'lum qimmatga ega bo'lgan buyum, ashyolar) va mulkiy bo'lmagan shaxsii (fuqaroning nomi, sha'ni, qadr qimmat) munosabatlarini tartibga soladigan huquqiy normalar yig'indisidir. Fuqarolik huquqining normalari fuqarolik to'g'risidagi qonunda va O'zRsining fuqarolik Kodeksida ifodalangan.

Mehnat huquqi - mehnat munosabatlarini paydo bo'lishi, o'zgarishi, to'xtatilishi shartlarini belgilovchi, ish va dam olishlikni va boshqa mehnat munosabatlarini o'rgatadi, Bu huquq normalari O'zRsining Mehnat Kodeksi bilan tartibga solinadi.

Yer huquqi - davlat mulki bo'lgan yerdan, undagi o'rmonlardan va boshqa boyliklardan foydalanish va uning samaradorligini oshirish munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir. Bu huquq normalari O'zRsining Yer Kodeksi va boshqa yer to'g'risidagi normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Suv huquqi - aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan foydalanish va suv obyektlari holatini yaxshilash munosabatlarini

o'rgatadi. Bu huquq normalari O'zRsining Konstitutsiyasida, Suv Kodeksi va boshqa suv to'g'risidagi qonunlarda aks ettirilgan.

Oila huquqi - fuqarolarning nikohda bo'lish shartlarini, er-xotin, ota-onalar, bolalar va oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy, farzandlika olish, vasiylik, bolalarni tarbiyalashga, nikoxni bekor qilish, fuqarolik holati aktlarni qayd qilish tartibini va boshqa oila munosabatlarini huquqiy normalar bilan tartibga soladi. Bu



huquq normalari O'zRsining Oila Kodeksida mustahkamlangan.

Jinoyat huquq - jamiyat uchun xavfli bo'lgan hamda ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini apiqlaydi, jinoyat sodir qilgan shaxslarga jazo choralari belgilaydi. Bu huquq Jinoyat Kodeksidan iborat.

Jinoyatni ijro etish huquqi-sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan jinoyat jazo choralari ijro etish, jazoni o'tash tartibi va shartlarini, maxkumlarni axloqini tuzatish va ularni qayta tarbiyalaydigan huquqiy normalar yig'indisidir. Bu huquq manbai O'zRsi jinoyatni ijro etish kodeksida jamlangan.

Jinoyat protsessual xuquqi — sud, prokuratura, tergov surishtiruv organlari, advakatura bila

n fuqarolar uchun jinoyat ishlarni ko'rish tartibini o'rgatadi. Bu huquq normalari O'zRsining Jinoyat — Protsessual Kodeksida aks ettirilgan.

Fuqarolik - protsessual xuquqi — sudlarning fuqarolik, oilaviy mehnat, yer, moliyaviy va boshqa ishlarning ko'rish tartibini o'rgatadi. Bu huquq manbai O'zRsining Fuqarolik — protsessual Kodeksida aks ettirilgan.

Xo'jalik-protsessual-huquq — xo'jalik sudi tomonidan har xil shakildagi mulkka ega bo'lgan korxonalar, jamoa xo'jaliklari, xususiy korxonalar hamda O'zbekiston Respublikasi boshqa davlatlar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini tartibga soladi. Bu huquq normalari O'zRniig Konstitutsiyasida va O'zRning Xo'jalik — Protsessual Kodeksida mustahkamlangan. Bu sohalaridan dastlabki o'ntasi moddiy va keyingi uchtasi protsessual xuquq sohalariga kiradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T, "O'zbekiston" 2022 yil
2. Karimov.I.A. " Bizdan ozod va obod vatan qolsin" 2-tom, T., "O'zbekiston" 2001 yil
3. Holmo'minov.Q " Davlat va huquq nazariyasi" o'quv qo'llanma Toshkent 2000 yil.
4. Boboyev.H.B., Odilov.H.T " Davlat va huquq nazariyasi" o'quv qo'llanma Toshkent 2000 yil.
5. www.ziyonet.uz